ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va

texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti

Sodiqov Hamid Maxmudovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika

kafedrasi katta o ‘qituvchisi (Phd)

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV-NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya: Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati va kompetentligining mavjud holatlarini o‘rganib chiqish har bir xalqning mavjud tili – shu xalqning, shu millatning o‘zligini ko‘rsatib turadigan bebaxo qadriy belgisi sanaladi. Shu nuqtai nazardan kommunikativ-nutq madaniyati o‘qituvchining motivatsion sohasida, psixikasida o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi, bu esa butun faoliyat tuzilishini qayta qurishga olib keladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ-nutq, madaniyat, kompetentlik, til, muloqot, tafakkur, dunyoqarash, ta’lim, tarbiya, bilim, qobiliyat.

Аннотация: Изучение современного состояния коммуникативно-речевой культуры и компетентности будущих учителей является бесценным свидетельством того, что существующий язык каждого народа – это бесценный знак, отражающий идентичность этого народа, этой нации. С этой точки зрения, коммуникативно-речевая культура подразумевает изменения в мотивационной сфере и психике учителя, что приводит к перестройке всей структуры деятельности.

Ключевые слова: коммуникативно-речевая культура, компетентность, язык, коммуникация, мышление, мировоззрение, образование, воспитание, знания, способности.

Abstract: The study of the current state of communicative and speech culture and competence of future teachers is an invaluable sign that the existing language of each people is an invaluable sign that shows the identity of this people, this nation. From this point of view, communicative and speech culture implies changes in the motivational sphere and psyche of the teacher, which leads to a restructuring of the entire structure of activity.

Keywords: communicative and speech, culture, competence, language, communication, thinking, worldview, education, upbringing, knowledge, ability.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati va kompetentligining mavjud holatlarini o‘rganib chiqish jarayoni har bir xalqning mavjud tili – shu xalqning, shu millatning o‘zligini ko‘rsatib turadigan bebaxo qadriy belgisi degan xulosa chiqarishga asos bo‘ldi. Har qanday xalqning tili – bu millatning asl ruhi, uning birinchi darajali va eng yaqqol belgisi. Tilda va til orqali milliy psixologik, millat xarakteri, uning tafakkuri va badiiy ijodi xususiyatlari ifodalanadi. Til fikrni shakllantirish va ifodalash vositasi, insonning atrof-olamni anglashi,

fikrlari va his-tuyg‘ularining ifodalanishi sifatida talqin etilgan. Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lib, nutqda yashaydi va mavjud bo‘ladi, bu uning yetakchi funksiyasi sanaladi.

Bizlarga yaxshi ma’lumki, jamiyatda til orqali butun bir xalqning xarakteri, tafakkuri, dunyoqarashi, intilishlari ifodalanadi. Til orqali insonlar o‘z fikrini tuyg‘ularini ifodalaydi. Uning yordamida muloqot amalga oshiriladi. Til insonlar o‘rtasida kommunikativ vositasi bo‘lib, doimiy ravishda nutqda yashashi uning yetakchi funksiyasi hisoblanadi. Tilning kommunikativ funksiyasi juda boy bo‘lib, doimo insonlarni jamiyatda va tabiatda bir birlarini e’zozlashga undaydi. Bir qator pedagog olimlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatiga oid muammolarini o‘rganib chiqganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

- nutq faoliyatining mohiyati to‘g‘risidagi masalalar;

- maktab o‘quvchilari nutq faoliyatining mohiyati to‘g‘risidagi masalalar;

- pedagogika oliy ta’limida talabalarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi masalalar;

- kommunikatsiya va muloqot toifalarining o‘zaro bog‘liqligi masalasi.

Hozirgi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarga nutq bilan bog‘liq ma’lumotlarni berish aslida shart emas. Chunki ular uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bu ma’lumotga ega bo‘lib kelmoqda. Biroq o‘qituvchilik kasbi nuqtayi – nazaridan yondoshib ko‘rganimizda ba’zi noaniqliklar uchraganligi bois ham biz kommunikativ nutq nima degan savolga javob berishimiz uchun quyidagi tushunchalarga to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvoffiq deb topdik.

Nutq — so‘zlash, gapirish qobiliyati. 1. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Nutq a’zolari Odam organizmining nutq tovushlari hosil bo‘lishida qatnashadigan turli qismlari (til, lab, tish, hiqildoq va b.). Nutq tovushlari nutqni vujudga keltiruvchi, inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar. 2. Amaldagi, so‘zlashuv jarayonidagi til. Nutq madaniyati. Biz nutqimizda ayrim so‘zlarni o‘zaro biriktirib, gap tuzamiz. 3. Tilning aloqa-aralashuv maqsadi va sharoitiga qarab lisoniy vositalardan muvofig‘ini tanlab ishlatish bilan farqlanuvchi turi, uslub. Poetik nutq. Badiiy nutq. Og‘zaki nutq. 4 Jamoat oldida aytiladigan, o‘qiladigan gap, va’z. Otashin nutq. Hayajonli nutq. Notiqning nutqi. Nutq so‘zlamoq. Nutqqa tayyorlanmoq.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib kommunikativ nutq nima degan savolga quyidagicha javob berdik.

Kommunikativ nutq – bu kishilarning nutq yordamida bir – birlari bilan fikr almashuvidir.

Kommunikativ-nutq madaniyati – kishilarning bir – birlari bilan fikr almashishi jarayonida axloq qoidalariga amal qilgan holda nutqdan moxirona foydalanishi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga nutqning muhim kommunikativ sifati to‘g‘risida ma’lumotlar berib boriladi. Talabalar nutqning muhim kommunikativ sifati – nutqning boyligi ekanligini bilib olishadi. Nutqning boyligini ta’minlaydigan muhim shartlar: nutqda ishlatiladigan ko‘p miqdordagi faol so‘z birikmalari, turli xil morfologik shakllar va sintaktik tuzilmalar degan xulosaga kelinadi.

Nutqning grammatik tuzilishi, mantiqiyligi, aniqligi ma'ruzachining lug'at boyligini anglatib turadi. Bo'lajak o'qituvchida lug'at boyligi qancha ko'p bo'lsa, u shuncha o'zini erkin tutadi.

Nutqning aniqligi – kommunikativ nutqning muhim belgisi hisoblanadi. Nutq tarkibidagi har bir so'z o'zining lug'aviy ma'nosiga to'liq mos kelishi shart. Aytilishi kerak bo'lgan fikr o'z ifodasini topmay qoladi. Voqelik hodisalari so'zlovchining nutqida aniqlikni aks ettirib turishi kerak.

Kommunikativ nutq jarayonlarida so'zlar aniq bo'lishi talab qilinadi. Nutqdan doimiy ravishda to'g'ri foydalanish kerak. Nutq muallif tomonidan aytilishi kerak bo'lgan fikrni to'liq qamrab olib, uning mavzusi va asosiy g'oyasini ochib berishi shart. Nutqning keyingi muhim kommunikativ sifati uning tozaligi, ya'ni adabiy tilda begona elementlarning yo'qligi. Nutqda parazit so'zlarning mavjudligi leksik zaxiraning yetishmasligidan, ehtimol nutq mavzusining haqiqatiga nisbatan ishonchning yo'qligidan yoki u haqida ma'lumotning yetishmasligidan dalolat berib, aytilgan so'z uchun javobgarlikni qisman olib tashlaydi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida kommunikativ nutq kompetentligi va kasbiy kompetentlik muammolari o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi sababli bu muammo masalalari bilan pedagog olimlar shug'ullanib kelayotganligini ham ko'rish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosi uning kasbiy sifatlarini shakllantirish keng qamrovli va murakkab hisoblanadi. Mazkur muammoni amaliyotda ishlab chiqish va amalga oshirish pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlilik darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetentligini yetarlicha shakllangan professional bilimlar, kommunikativ va tashkilotchilik ko'nikmalari, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlari, empatiya, verbal va noverbal o'zaro munosabatlar madaniyati majmui sifatida tushunamiz.

Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv adaptiv darajadan tizimli modellashtirilgan darajaga o'tish asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Kommunikativ kompetentlik–muloqot maqsadlari, sohalari, vaziyatlariga mos bo'lgan boshqalarning nutqiy xulq dasturlarini tushunish va o'z shaxsiylarini hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar. Kommunikativ kompetentlik tushunchasiga quyidagi yo'nalishlar kiritiladi:

- lingvistik nazariyadan xabardorlik, uni til vositalarini nutqda qo'llashni tartibga soluvchi qoidalar tizimi va umumiy talablar tizimi sifatida anglash;

- nutq nazariyasini bilish, nutqiy faoliyatning asosiy turlarini egallaganlik;

- nutqiy vaziyatni tahlil qilish qobiliyati va unga mos ravishda muloqotning turli sohalari va vaziyatlariga nisbatan, kimga yo'nalganligi va maqsadini hisobga olgan holda nutqiy xulq dasturini tanlash.

Shuningdek, ta'limga faoliyatli yondashuv sharoitlarida pedagogik jarayon quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi:

- ongli kommunikativ maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan pedagog va talabalar o'zaro munosabatlarining maqsadga yo'nalganligi;

- talabalarning nutqiy fikrlash faolliklari;

- kommunikativ vazifalarni hal etishdagi ishtiroki;

- talabalar kommunikativ bilim va ko‘nikmalari dolzarb bo‘lgan o‘quv vaziyatlarini yaratishni ko‘zda tutuvchi vaziyat.

Shu tariqa, ta’limiy jarayon ishtirokchilari, bo‘lajak o‘qituvchilar tilga oid mas’uliyat, zamonaviy adabiy tilni amaliy egallash darajasini oshirish, nutqdan muloqot va axborotni uzatish vositasi sifatida foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirib borishi davr talabi hisoblanganligi sababli pedagogika institutlari bunga jiddiy e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda pedagogik malakaning asosiy belgisi, eng avvalo, fanni bilish, o‘rgata olish, bilimga qiziqishni uyg‘otish, ma’lum shaxs sifatlari va xarakterini shakllantirish hisoblanadi. O‘qituvchiga qo‘yiladigan mazkur talab, boshqa insonning shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan sanoqsiz qator vazifalarni hal etishni ko‘zda tutadigan pedagogik faoliyat mohiyatidan kelib chiqadi. Pedagogning kasbiy mahorati mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ifodalanadi.

Pedagogik malaka deganda, pedagogik faoliyatning psixologik-pedagogik va metodik bilimlarni ongli qo‘llashga asoslangan ma’lum usullarini egallaganlik tushuniladi. Shunga qaramay, dars qanchalik yaxshi tashkillashtirilgan va rejalashtirilgan bo‘lmasin, pedagog o‘zining kommunikativ-nutqiy faoliyatini tashkil eta olmasa, muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

Kommunikativ-nutq madaniyati – pedagogning asosiy sifatlaridan biri, pedagogik jarayonning ahamiyatli tashkil etuvchisidir. “Pedagog-o‘quvchi” bo‘g‘inidagi o‘zaro munosabat vaqti bilimlarning bosma oqimiga virtual axborot qo‘shilganligi va doimiy qisqarish sur’atiga egaligi sababli, o‘qituvchi endilikda bilimlarning yagona manbai hisoblanmaydi, “pedagog-o‘quvchi” “jonli” bo‘g‘inida o‘zaro munosabatlarning maksimal samaradorligi muammosi shakllanadi. Professional tayyorgarlik bosqichida, fikrimizcha, kasbiy va kommunikativ-nutqiy tayyorgarlikni birlashtirish eng istiqbolli hisoblanib, faoliyat natijalarini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Pedagogik jarayon bu “o‘qituvchi-o‘quvchi” tizimi holatining almashishidir. Mazkur tizimning amal qilishi asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faoliyat almashish yotadi, o‘quvchilarning faoliyatlarini tashkil etish esa, o‘qituvchi faoliyati predmeti hisoblanadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi jarayon sub’ektlari hisoblanadilar, ammo yetakchi rol aynan o‘qituvchiga tegishli, chunki u o‘quvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishlarida ongli faoliyatning tashkilotchisi hisoblanadi. Shu tariqa, o‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy tajriba va o‘quvchilarning o‘zlari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in, ko‘prik hisoblanadi.

Biz bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashni faoliyat ob’ektiga yo‘naltirish o‘qituvchining yanada mahsuldor faoliyatiga ko‘maklashadi deb hisoblaydigan mualliflarning fikriga qo‘shilamiz. Xullas, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida ularni kutiladigan faoliyat ob’ektiga – yaxlit pedagogik jarayonga yo‘naltirish kerak.

O‘qituvchini kasbiy tayyorlashning quyidagi sifatlarini ajratish zarur:

- “o‘qituvchi-o‘quvchi” amaldagi tizimi sifatida jarayon xususiyatlarini bilish;

- rivojlangan pedagogik jarayonni boshqarishga tayyorgarlik;

- muloqot birligini va pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi faoliyat almashishni ta’minlashda o‘qituvchining rolini tushunish;

- turli faoliyat ko‘rinishlarining xususiyatlarini, pedagogik jarayonda ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini tashkil etish usullari va shakllarini bilish.

Shu tariqa, o‘qituvchining urinishlari “o‘qituvchi-o‘quvchi” tizimidagi o‘zaro munosabatni tashkil etish va yaxshilashga qaratilishi lozim. O‘qituvchining kommunikativ-nutq madaniyati pedagogik jarayonni takomillashtirish quroliga aylanishi va pedagogik jarayon ishtirokchilarini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining yuqori darajalarini talab etadi va bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash mazmunida ham o‘zgarishlar zarur. Ammo bizning umidlarimizga zid ravishda, o‘qituvchi kasbiy kompetentsiyasining yuqori darajasi ham kutilgan samarani bermaydi. Kasbiy kompetentsiya, umumiy kasbiy faoliyatga “qurilish” kerak. O‘qituvchi o‘z faoliyatida samarali foydalanish uchun o‘z faoliyati ob’ekti to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘lishi, pedagogik faoliyatni boshqarish nazariyasini egallagan bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, o‘qituvchining kommunikativ-nutq madaniyati o‘qituvchining motivatsion sohasida, psixikasida o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi, bu esa butun faoliyat tuzilishini qayta qurishga olib kelishi kerak. Shuning uchun, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish zarur, ammo buning o‘zi yetarli emas. Aynan bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash kommunikativ kompetentligi va shaxs motivatsion tuzilishidagi o‘zgarishlar bilan birgalikda faoliyat ob’ektiga yo‘naltirish, fikrimizcha, pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish sharoitlarida o‘qituvchilar faoliyatining yuqori natijalarini ta’minlashi kerak.

Demak kasbiy tayyorgarlik davomida uning shunday natijasini ta’minlash kerakki, bunda bo‘lajak o‘qituvchi o‘z faoliyati ob’ektini o‘zgartirishga qodir bo‘lishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarliklari jihati, uning natijasi bo‘lishi lozim. Ta’kidlash joizki, oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ – nutq madaniyatining rivojlantirilishi zamirida, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini yaxshilash mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ – nutq madaniyati va kompetentligining mavjud holatini tahlil qilib, shunday xulosaga kelindiki, aynan bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda rivojlangan mamlakatlatlarning tajribalari va texnologiyalarini o‘rganib, sharoitga moslashtirib ulardan samarali foydalangan holda zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botcheva L., Shih J., Huffman L.C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach // American Journal of Evaluation. –2009. –Volume 30. –№2. –P. 142-145

2. Katonova Ye.M. Razvitie yazыkovoy i rechevoy sposobnosti mladshix shkolnikov // Pachatkovaya shkola. 2004. – №6. – S.20.

3. Xalikov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. Monografiya. – Toshkent: Iqtisod Moliya, 2015. –112-115 b.

4.Sodiqov Kh. Developing Communicative and Speech Culture and Communicative Competence of Future Teachers. // Eastern Europen Scientific Journal. Germany. 2018. 3-son. -B. 224-229

5.Sodiqov Kh. Technologies for developing students' communicative and speech culture. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2020. 3-son. –B. 64-68